

Magistraturaga hujjatlar qabul qilish 1 iyuldan boshlandi!

Qabul 30 iyulgacha (shu kuni ham) davom etadi.

- Hujjat topshirish magistr.edu.uz sayti orqali onlayn amalga oshiriladi, OTMlarda qabul qilinmaydi!

Abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) Pasport ma'lumotlari to'ldiriladi. Bunda abituriyent JSHSHIR raqamini hamda pasport seriyasi va raqamini kiritishi kifoya. Pasportning skaner yoki rasm varianti talab etilmaydi;
- 2) Doimiy yashash manzili (tushunarli aytadigan bo'lsak, propiska bo'yicha) kiritiladi;
- 3) Bakalavrda tugatgan ta'lim muassasasi ma'lumotlari kiritiladi;
- 4) Diplomning rasmi hamda baholar qayd etilgan ilovaning skaner varianti yuklanadi;
- 5) Agar abituriyent imtiyozlarga ega bo'lsa, ya'ni chet tilini bilish sertifikatini, olimpiadalar g'olibligi, Prezident yoki nomli stipendiya sohibi ekanligi va h.k.larni tasdiqlovchi hujjatlarni kiritadi;
- 6) Hujjat topshirmoqchi bo'lgan mutaxassisligini tanlaydi.

Abituriyentdan shundan boshqa qo'shimcha hujjatlar, masalan fotosurat, maqolalarining nusxasi, tibbiy ma'lumotnoma talab etilmaydi!

Magistratura imtihonlari onlayn test shaklida bo'ladi

Magistraturaga qabul koronavirus pandemiyasi sharoitidan kelib chiqib, on-layn test o'tkazish orqali belgilangan davlat granti va to'lov-kontrakt asosida qabul parametrlariga muvofiq amalga oshiriladi..-

Magistraturaga kirish sinovlari tarkibiga (xususan, mutaxassislik fanlari bo'yicha kirish sinovlari tarkibiga) tegishli mutaxassisliklar sohaslarida talabgorlarni ilmiy-pedagogik layoqati (yoki ilm olish qobiliyati)ni aniqlash bo'yicha test savollari ham kiritiladi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev huzurida 2020 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan yig'ilishning 28-sonli bayoni 5-bandida belgilangan vazifalar.